

MAKTABGACHA YOSHDAGI QIZLARNI TARBIYALASHDA TARBIYACHINING ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARI

**Oxunova Shaxnoza Umarjon qizi
Qo'qon universiteti, Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabasi**

Annotatsiya: Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlari hal qiluvchi bosqichga kirdi. Maqola maktabgacha yoshdagi qizlarni tarbiyalashda tarbiyachining ota-onalar bilan hamkorlik ishlari va bu ishlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lif, oila, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy, tarbiya, sotsiologik, kontsepsiya.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Qiz farzand tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlarning tarbiyalashining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiylashtirish muhokama qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkilotida tahsil olayotgan qizning oilasi bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobjiy tomonlarini ko'rsatib, keyin astasekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiylashtirish muhokama qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabga borish qiz bola balki maktab yoshidagi barcha bolalar uchun hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Mazkur davr bilan bolaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bolaning oldingilardan farq qiladigan faoliyat shakllarini o'rganishiga to'g'ri keladi. Kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarning boshqa uslubini o'rnatish, fiziologik jihatdan o'zgarishi ham talab etiladi.

Xo'sh, maktabgacha ta'lif yoshidagi qizlarning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak degan muhim savol yuzaga keladi.

Qizlarni maktabga muvaffaqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirish lozimdir.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhalarda emas, balki uning maktabgacha ta'lif muassasasiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq ham boshlash lozim. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddat

ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, qizlarni mакtab ta'limga tayyorlashda MTT, maktab, mahalla, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lif tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zb. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lif markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.
2. O'.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.:1994-y.
3. Z. G'ofurov, S.Toshev. Ma'naviyat saboqlari. Qarshi. 1999-y.
4. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarни tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
5. A.D. Qurbonovna "Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma" T.: 2020-yil